

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XOTIRA VA UNING RIVOJLANISHI, SAMARALI YONDASHUV VA AMALIY TAVSIYALAR

Yusufjonova Zebo Muzaffar qizi
Qo'qon universiteti Andijon filiali
Ijtimoiy-gumanitar va pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1-bosqich 1-guruh talabasi
Gmail: Zebo06.2207@gmail.com
Telefon raqam: +998 91 878 86 67

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira jarayonlari va uning rivojlanishining psixologik, pedagogik jihatlarini yoritiladi. Xotiraning shakllanish bosqichlari, uning samaradorligini oshirish usullari va bolalarda eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishga oid tavsiyalar taqdim etiladi. Ushbu tavsiyalar orqali bola xotirasini yaxshilash uchun amaliy yondashuvlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Bola, xotira, idrok, ong, qobiliyat, diqqat, eslab qolish.

Аннотация: В статье рассматриваются психолого-педагогические аспекты процессов памяти и ее развития у детей дошкольного возраста. Представлены этапы формирования памяти, методы повышения ее эффективности, а также рекомендации по развитию памяти у детей. Эти рекомендации предлагают практические подходы к улучшению памяти ребенка.

Ключевые слова: Ребенок, память, восприятие, сознание, способность, внимание, запоминание.

Annotation: This article discusses the psychological and pedagogical aspects of memory processes and its development in preschool children. The stages of memory formation, methods for improving its effectiveness, and recommendations for developing children's memory skills are presented. These recommendations provide practical approaches to improving a child's memory.

Keywords: Child, memory, perception, consciousness, ability, attention, remembering.

XX asrning 90-yillarida psixologiyada "kognitiv ta'lim"* yo'nalishi paydo bo'ldi. Mazkur yo'nalish doirasida kognitiv ta'limning individual metod va uslublarini ishlab chiqish, tafakkur jarayonini faollashtirish, ijodiy qobiliyatlarini diagnostika qilish, bolalar va kattalar ijodiy qobiliyatlari, yashirin salohiyatlarini ruyobga chiqarish muammolari o'rganildi. Bugungi kunga kelib bu yo'nalish ta'lim yondashuvi rivojlanayotgan bo'lsa-da, maktabgacha yoshdagi bolalarning xotira va tafakkur jarayonlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti. Aksincha, tezkor natijaga

erishishga intilish natijasida bolalarning eslab qolish, diqqatni jamlash va mustaqil fikrlash qobiliyatlari ikkinchi darajaga surilmoqda. Ushbu maqola davomida maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira, diqqat va bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali amaliy tavsiyalar beriladi.

Maktabgacha bo'lgan yosh davri yoki bog'cha yosh davri 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrdagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Ulardan biri ongning eslab qolish qobiliyati ya'ni xotira. Xotira deganda idrok etilgan narsa va hodisalarni yoki o'tmish tajribalarini esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixik jarayon tushuniladi. Xotira kabi bilish jarayoni eslab qolish, saqlash, keyinchalik tanib olish va ilgari o'rganilgan narsani qayta ishlab chiqarishdan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, xotira ta'lim va tarbiya, bilim olish, shaxsiy tajriba va ko'nikmalarni shakllantirishning asosi hisoblanadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda xotira asosan idrok etishda ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilarga asoslanadi, misol uchun, rang-barang o'yinchoqlar yoki turli tuman rasmlar bilan tasvirlangan ertak kitoblar ko'proq e'tiborini tortadi va shu tarzda bola xotirasi shakllana boshlaydi.

Xotira jarayonlari:

- 1) Esda olib qolish;
- 2) Oz'lashtirilgan ma'lumotni esa saqlash;
- 3) Esga tushurish va tanish;
- 4) Unutish.

Bola 3–4 yoshga yetganda atrof-muhitdan olingan ma'lumotlarni esda olib qolish qobiliyatiga ega bo'la boshlaydi. Esda qolgan ma'lumotlar ko'proq shaxsiy tajribalarga taalluqli bo'lib, ular hali to'liq o'zlashtirilmagan bo'ladi. Bola ma'lum bir voqeani eslab, o'z so'zlari bilan esga tushirish va oddiy tanishish darajasida ifodalay oladi. Unutish esa nisbatan tez yuz beradi, chunki esda qolgan voqealar chuqur mustahkamlanmagan bo'ladi. 4–5 yoshdagi bolada esda olib qolish qobiliyati kuchayadi va u ma'lumotlarni yanada chuqurroq o'zlashtira boshlaydi. Voqealarni batafsilroq esga olish va ketma-ketlik asosida hikoya qilish imkoniyati rivojlanadi.

Bola o'z tajribalarini xotiradan esga tushurish va atrofdagi voqealarni tanish orqali tahlil qila oladi. Shunga qaramay, o'rganilgan ma'lumotlar hali mustahkam xotira zaxirasiga to'liq joylashmaganligi sababli ayrim tafsilotlar vaqt o'tishi bilan unutilishi mumkin. Bola 5–6 yoshga kelib, esda olib qolish, o'zlashtirish va esga tushurish jarayonlari yanada tizimli shaklga kiradi. U endi ma'lumotlarni ongli ravishda o'zlashtirib, uzoq muddatga eslab qoladi. Bola voqealarni mantiqiy bog'liq tarzda esga tushurish va tafsilotlar asosida tanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yoshda unutish nisbatan kamayadi, chunki xotirada mustahkam asoslangan bilim va tajribalar shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yetakchi faoliyat o'yin ekanligini hisobga olsak, ularda xotira jarayonlari asosan o'yin faoliyati davomida

rivojlanadi. Shuning uchun ularga o'yinlar orqali qiziqarli tarzda eslab qolishni yaxshilovchi, xotirani rivojlantiruvchi va diqqatni rivojlantiruvchi metodikalardan foydalanish samarali natija beradi. Quyida bog'cha va maktab yoki uyda bajarish mumkin bo'lgan rivojlantiruvchi o'yinlar keltirildi:

1. "Tezkor topish" o'yini

Bu o'yin bolalarning vizual xotirasini va tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Dastlab bolaga bir necha daqiqa davomida turli xil buyumlar (masalan, o'yinchoqlar, geometrik shakllar, mevalar) ko'rsatiladi. So'ngra buyumlar berkitiladi va bolaga topshiriq beriladi: eslab qolgan buyumlarning nomini aytilish yoki ular orasidan ma'lum birini tezda topib ko'rsatish. Ushbu mashq bolada kuzatuvchanlik, eslab qolish va tezda to'g'ri javob berish ko'nikmalarini shakllantiradi.

2. "Ketma-ket harakatlar" mashqi

Bolaga ketma-ket harakatlar ketma-ketligi ko'rsatib beriladi, masalan: "qo'lni ko'tarish – chapga burilish – sakrash – pastga egilish." Bola bu harakatlarni eslab, to'g'ri tartibda bajarishi kerak bo'ladi. Dastlab harakatlar soni kam bo'ladi, keyinchalik esa ularni asta-sekin ko'paytirsa bo'ladi. Mazkur mashq bolada eslab qolish, harakatni rejalashtirish va motorik xotirani rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

3. "Raqamli poezd" o'yini

Pol ustiga yoki qog'oz ustiga raqamlar yozgan vagonchalar rasmi (masalan, 1 dan 10 gacha). Tarbiyachi ma'lum ketma-ketlikni aytadi (masalan, 2-4-7), bola esa shu raqamli vagoncha ustiga to'g'ri tartibda sakrash kerak bo'ladi. Bu o'yin bolada raqamli ketma-ketlikni eslab qolish, tanani boshqarish va muvozanatni saqlash ko'nikmalarini kuchaytiradi.

Bu kabi amaliy mashg'ulotlar bolalarda diqqat va xotira kabi kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiribgina qolmay, sezgi a'zolari- ko'rish, eshitish, harakatlarini ham yaxshi shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ma'lumotlarni idrok qilishda sezgi organlari qanchalik ko'p ishtirok etsa ma'lumot shunchalik tez va puxta esda qoladi. Bu haqda mashhur rus pedagoglaridan K.D. Ushinskiyning quyidagi gaplari juda ham o'rinlidir. "Bolaning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog, bola sezgi organ, muskul sezgisi va hatto, iloji bo'lsa hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak".

*Kognitiv ta'lim** (lotincha: *cognitio* "idrok", "bilish" ma'nolarini anglatib— tafakkur, tasavvur, va xotira orqali ongni rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy yondashuv)

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) S.X.Jalilova, S.M.Aripova “*Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi*” Toshkent-2013.
- 2) Z.T.Nishanova, G.K.Alimova, A.G’.Turg’unboeva, M.X.Asranboeva “*Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi*” Toshkent-2017.
- 3) Z.Nishanova, G.Alimova “*Bolalar psixologiyasi va uni o’qitish metodikasi*” Toshkent-2006
- 4) psixologim.uz
- 5) uz.m.wikipedia.org